

KO‘ZI OJIZ BOLALAR NUTQIDAGI BUZILISHLARINI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xoliqov Azamat Qahramonovich¹, Xayitova Farida Kuchkarovna²

¹Axborot texnologiyalari va menejment universiteti professori,

²Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19449514>

Annotatsiya. Ushbu maqola ko‘zi ojiz bolalar nutqiy rivojlanishining pedagogik - psixologik o‘ziga xos jihatlarini nazariy jihatdan ochib berishga qaratilgan bo‘lib, unda hozirgi kunda ko‘zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogic hamda psixologik jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, Sezgi, Sensorika, psixika, sezgi, xotira, Korreksiya, Verbal, Kompensatsiya, Lingvistika.

Аннотация. Данная статья направлена на теоретическое раскрытие педагогических и психологических специфических аспектов развития речи у слепых детей, в рамках которого в настоящее время изучается развитие речи у слепых детей с педагогической и психологической точки зрения.

Ключевые слова: Речь, Ощущение, Сенсорный, психика, ощущение, память, Коррекция, Вербальный, Компенсация, Лингвистика.

Abstract. This article is aimed at theoretically revealing the pedagogical and psychological specific aspects of the speech development of blind children, in which the development of speech in blind children is currently studied from a pedagogical and psychological perspective.

Keywords: Speech, Sensation, Sensory, psyche, sensation, memory, Correction, Verbal, Compensation, Linguistics.

Kirish: Zamonaviy maxsus pedagogika va tiflopedagogika fanlarida ko‘zi ojiz bolalar nutqining rivojlanishi muammosi dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ko‘zi ojiz bolalarda nutq rivojlanishi umumiy rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi. Garchi “Tiflopedagogika” atamasi zamonaviy bo‘lsada, uning g‘oyaviy-pedagogik ildizlari sharq mutafakkirlari asarlarida mujasam bo‘lib, hozirgi kunda bolalar ta’lim-tarbiyasining mexanizmi ushbu manbalarga tayanadi.

Ko‘zi ojiz bolalar bilan korreksion ishni tashkil etishda ulardagi individual psixologik-pedagogik va jismoniy imkoniyatlarni hisobga olish talab etiladi. Bu borada Sh.E.Toxtiyarova ta’limning universal dizaynidan foydalanish (TUD) – ushbu yondashuvning individual xususiyatlaridan qat’iy nazar. Barcha o‘quvchilar uchun qulay va tushunarli metodlarni: differensial ko‘rsatmalarni qo‘llash, kollaborativ yondashuv, xulq-atvorni boshqarish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishni o‘z izlanishida keltirib o‘tgan. [1] ‘O‘zbekiston-2030’ taraqqiyot strategiyasiga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, yoshlar ta’limi, kasb-hunar egallashi, til o‘rganish, raqobatbardosh kadr bo‘lishlari mamlakat kelajagini belgilabgina qolmay balki, uni dunyo hamjamiyatida nufuzini turli sohalarda yuksaklarga olib chiqadi.[2]

Mavzuning dolzarbligi: R.V.Ovcharova psixologik-pedagogik yordamga to‘liqroq ta’rif beradi. Muallifning fikricha, birinchi holda, u shaxsni qo‘llab-quvvatlash va uni qiyin, muammoli vaziyatlarda yo‘naltirish, shuningdek, individual-shaxsiy salohiyatning tabiiy rivojlanishi bilan birga keladi. Ikkinchi holda, bu optimal ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ta’minlash, psixologik salomatlikni saqlash va bola shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishi va uning shakllanishini ta’minlash uchun turli xil psixologik usullar bilan ifodalangan o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmuasidir. [3]

Nutq- bu insonning fikrini, hissiyotini va ehtiyojini til vositalari orqali ifodalash jarayoni bo‘lib, u muloqot va tafakkurning asosiy qurolidir. Insonning kommunikativ, kognitiv (bilish), regulativ va emotsional rivojlanishi nutq bilan uzviy bog‘liq. Nutqiy faoliyat mehnat, o‘yin, o‘quv, kommunikativ va bilish faoliyati, jumladan mnestik kabi faoliyatning xilma-xil turlarini namoyon etib, ularga “xizmat qiladi”. [4] Nutq bolaning ruhiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi (L.S.Vigotskiy, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontyev). O‘z navbatida imkoniyati cheklangan bolalarning ma’lum guruhida ruhiyatning turli xildagi buzilishlari (birinchi navbatda – intellektual rivojlanishning buzilishlari) odatda tilning qator komponentlarining (birinchi navbatda – semantik, sintaksik va leksik) rivojlanishdan ortda qolishiga yoki patologik buzilishiga olib keladi. [5]

Nutq- murakkab psixofiziologik tizim hisoblanadi. Nutqning lingvistik asosini esa-til, uning tizim sifatida barcha komponentlarini nazarda tutadi. Lingvistika – tilni bir butun tizim sifatida qamrab olib, uning fonetik-fonematik, leksik-grammatik komponentlarini o‘rganishni ko‘zda tutadi. [6]

Nutqiy funksiyalarning shakllanishida artikulyasion motorikaning rivojlanganligi muhim rol o‘naydi. Bosh miyadagi nutq zonalarining rivojlanishi ko‘p jihatdan nutqiy kinesteziyalarga bog‘liq (nutq jarayonidagi artikulyasiya a’zolarining harakatlarida yuzaga keladigan impulsarga) bo‘lib, artikulyasiya buzilishida ular ham buziladi. Bosh miya nutq maydoniga keladigan afferent impulsni kamayishi, ularning yetilishini kechiktiradi. Bu nutqning to‘liq rivojlanishini orqada qolishiga olib kelishi mumkin deb takidlaydi olim M.B.Mamatova. [7] Darhaqiqat analizatorlarimiz orqali olinadigan ma’lumotlar to‘liq, yorqin qabul qilinishi bu bilish jarayonlarining tizimli ishlashiga imkon beradi va nutqning rivojlanishi orqada qolmaydi.

Bolalar nutqi maromida bo‘lishi uchun bosh miya po‘stlog‘idagi nutq markazlari, sezgi organlari ham yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda ayniqsa nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlanishi juda muhim. [8] Jismonan va aqlan meyorda rivojlanayotgan bola nutqi uch yoshda to‘liq rivojlanib, atrofdagilar bilan kommunikativ aloqani o‘rnatish olish bilim, ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarda nutq rivoji o‘ziga xos bo‘lib, vizual tajribaning cheklanganligi sababli so‘zlarning ma’nosi ko‘pincha yetarlicha aniq shakllanmaydi. Nutqda verbalizm (so‘z ko‘p, ammo mazmun yuzaki) holati kuzatiladi. Bunday bolalarda predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlar asosan eshitish, sezgi va harakat analizatorlari orqali shakllanadi. Shu sababli ularning nutqini rivojlantirishda multisensor yondashuv, ya’ni bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi analizatorlariga tayangan holda ta’lim berish muhim sanaladi.

Ko‘zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirishning sensor kompensatsiya, konkretlik va amaliy yo‘naltirilganlik, faol nutqiy muloqot kabi pedagogik tamoyillaridan doimiy samarali foydalanish korreksion-pedagogik ishning samaradorligini oshiradi. [9]

Zaif ko‘ruvchi bolalar bilan logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etishda asosiy e’tibor saqlanib qolgan ko‘rish faoliyatidan foydalanish imkoniyatiga qaratiladi zarur boigan hajmdagi, rangdagi didaktik material), relefli rasmlar, “ajoyib xaltachalar”, kubik va qalamchalar (tovush,

bo'g'in va gaplarni belgilash uchun) ishlatiladi. Predmetlar dunyosining keng qamrovligi haqidagi tasavvurlarini

Metodlari:

1. Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish,
2. Ko'zi ojiz bolalar nutqini pedagogik-psixologik qiyoslash,
3. mavzuga oid jarayonlarni kuzatish,
4. ko'zi ojiz bolalarda nutq rivojlanish darajalarini o'rganish.

shakllantirishda tabiiy ko'rgazmali qurollar ahamiyati juda kattadir. Mashg'ulotlar o'yin orqali olib borilishi shart, sababi ko'rishdagi chuqur nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarda o'yin faoliyati juda kech shakllanadi.

Birinchi darajali nutq rivojlanganligi aniqlangan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishni rejalashtirayotganda bu bolalarning

yaxshi nutqiy bazasi inobatga olinib, asosiy diqqat nutqning fonetik tomonini rivojlantirishga qaratiladi, eshitish diqqatini rivojlantiruvchi o'yin va mashqlar beriladi. Ko'zi ojiz bolarning taqlid qilishi qiyinlashgani sababli ularga tovushlar mexanik usullar bilan qo'yiladi.

Ikkinchi darajali nutq rivojlanganligi aniqlangan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ta'simi rejalashtirayotganda birlamchi guruh bolalari bilan olib boriladigan ishning barcha bo'limlari saqlab qolinadi va inobatga olinadi. Lekin bu yerda asosiy diqqat so'z boyligini oshirish, fonematik tahlil va sintezni rivojlantirishga qaratiladi. [10]

Uchinchi va to'rtinchi darajali bolalar bilan ish olib borishda logopedlar

(tiflopedagog va tarbiyachilar bilan kelishilgan holda) ta'lim va o'yin, amaliy faoliyatini korreksiyalashga qaratilgan elementlarni kiritadi. Bunda motor malakalari, chamalash va ko'rib-yasash malakalari mavjud bo'lishi kerak. Bu ish nutq malakasini rivojlantirish va unga mos tushunchalarni shakllantirishni uzviy bog'laydi. Buning asosida bolalarda atrofimizdagi olam haqidagi chuqur tushunchalar va bilimlarni shakllantirish yotadi. Bu guruhdagi ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning xususiyatlarini inobatga olgan holda asosiy diqqat ularda lug'at boyligini oshirish, so'zni predmet obrazi bilan to'g'ri solishtirish, umumlashtiruvchi tushunchalarni, grammatik tuzum va mustaqil nutqni rivojlantirishga qaratiladi.

Psixologiya fanida nutq shaxs psixik rivojlanishining markaziy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ko'zi ojiz bolalarda esa nutq nafaqat muloqot vositasi, balki atrof-olamni bilish, tajribalarni umumlashtirish va ichki psixik jarayonlarni tartibga soluvchi asosiy mexanizm hisoblanib, ko'rish cheklanishi sababli sezgi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur jarayonlari o'ziga xos rivojlanishi kuzatiladi. Ko'rish sezgisining yo'qligi yoki keskin pasayib ketishi bolalarda tashqi olam obrazlarining to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Ko'zi ojiz bolalarda nutq psixologik jihatdan kompensatorlik vazifani bajaradi: bilish faoliyati kengaytirish, atrofnii o'rganishda yetishmayotgan vizual axborotni eshitilgan va tushunilgan ma'lumotlar bilan to'ldirish, ijtimoiy tajribani o'rganish kabi bir qator vazifalarni bajaradi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tekshirish bolaning me'yorida rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tiflopsixologlar tomonida ishlab chiqilgan nazariya asosida olib boriladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish jarayonidavlatining rivojlanishi ham me'yorida rivojlanayotgan bolalarning rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga mos kelishi kuzatilgan. Bularga quyidagilar kiradi: psixik rivojlanish jarayonlarining senzitiv davrini mavjudligi; psixik jarayonlarning rivojlanishini ketmaketligi, psixik rivojlanishda faoliyatining roli, nutqningoliy psixik jarayonlarni shakllanishidagi roli; psixik rivojlanishda ta'limning etakchi roli (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy). L.S.Vigotskiy turli nuqsonlarga bolalarni psixik

rivojlanishini qonuniyatlarini o'rganish jarayonida turli nuqsonlarda namoyon bo'ladigan umumiy o'ziga xos qonuniyatlari ajratgan. U anomaliyani yuzaga keltiruvchi sabablar birlamchi nuqson sifatida keluvchipsixik faoliyatni asosiy nuqsonlarini yuzaga keltiradi, natijada bubolani psixik rivojlanishini o'ziga xos o'zgartirib, psixik faoliyat ikkilamchi, uchlamchi va x.k. nuqsonlarini yuzaga keltiradi. Umumiy qonuniyatlar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan anomal toifadagi barcha bolalarga tegishli bo'lib, nutqiy muloqotidahamda harakat nuqsonlarida o'ziga xos ifodalanib, anomaliyaning turi va turli shaklidan namoyon bo'ladi. [11]

V.I.Lubovskiy va J.I.Shif ko'rsatishicha, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarning bo'lishi bolalarni tashqi olamdan oluvchi ma'lumotlarni chegaralab qo'yadi. Jismoniy rivojlanishida ham etarlicha o'zgarishlar kuzatiladi -harakatlarining aniqligi, intensivligi buziladi, yurish ko'nikmalari vaboshqa harakat aktlari o'ziga xos bo'lib qoladi. [12] Sekin -asta bolada o'ziga xos, o'zining psixologik tizimi shakllanadi, bu me'yorida rivojlanuvchi bolaning rivojlanishini biron-bir tizimi bilan sifat vatuzilishi jihatdan o'xshamaydi, u o'z ichiga rivojlanishning turli darajalarini birlamchi nuqsonga ta'siri, shuningdek rivojlanishning yangi kompensator yo'llarining yaratishga asoslangan. [13] Bu ko'rishdan nuqsoni bo'lgan bolalarda funksiyalararo bog'liqlikni ham o'ziga xos amalga oshirilishini ko'rsatadi. Shuning uchun ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik tizimini rivojlanishi hamdashedaklanishi u bilan ilk bolalik davridanoq kompensator jarayonlarini shakllantirish hamda korreksion ishni bog'liq ravishda olibborishga bog'liq bo'ladi. [14]

Xulosa. Ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarda nutq rivoji o'ziga xos bo'lib, vizual tajribaning cheklanganligi sababli so'zlarning ma'nosi ko'pincha yetarlicha aniq shakllanmaydi. Nutqda verbalizm (so'z ko'p, ammo mazmun yuzaki) holati kuzatiladi. Bunday bolalarda predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlar asosan eshitish, sezgi va harakat analizatorlari orqali shakllanadi. Shu sababli ularning nutqini rivojlantirishda multisensor yondashuv, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi analizatorlariga tayangan holda ta'lim berish muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khalikov, A. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL ADAPTATION OF YOUNG GRADUATES WITH VISUAL IMPAIRMENTS IN LIFE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 253-264.
2. Qahramonovich, X. A. (2023). KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BITIRUVCHI YOSHLARNI MUSTAQIL HAYOTDA IJTIMOIIY MOSLASHUVINI AMALGA OSHIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIK. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 561-563.
3. Qahramonovich, X. A. (2026). VOCATIONAL GUIDANCE OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF INCLUSIVE EDUCATION. *Shokh Articles Library*, 1(1), 563-566.
4. Khalikov, A. (2024). PROFESSIONAL FAULTS IN THE ACTIVITY OF A TEACHER. *Science and innovation*, 3(B9), 61-63.
5. Khalikov, A. (2023). PRINCIPLES AND METHODS OF INCREASING TEACHING EXCELLENCE IN THE MODERN EDUCATIONAL SPACE. *Science and innovation*, 2(B11), 164-167.
6. Khalikov, A. (2023). COMMUNICATIVE METHODS OF COMMUNICATION WITH STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B11), 491-494.
7. Khalikov, A. (2023). THE SET OF ABILITIES THAT CHARACTERIZE THE "PEDAGOGICAL SKILL" OF A TEACHER. *Science and innovation*, 2(B11), 160-163.

8. Sh.E.Toxtiyarova Boshlang'ich sinf o'quvchilarini inklyuziv ta'limga tayyorlashning pedagogic-korreksion strategiyalarini takomillashtirish mavzusidagi (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati (16-b) T.2024-YIL
9. Власюк М.В. Психолого-педагогическое сопровождение обучающихся с гиперактивностью в условиях общеобразовательной организации, реализующей инклюзивное обучение. Инклюзивное образование: стратегии образовательных траекторий и современные механизмы непрерывного развития: //Материалы Межрегиональной заочной научно-практической конференции. Кострома, 25 мая – 31 июля 2020. – С. 87
10. Raxmatillayeva Gulnoza Shavkatovnaning “Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish” Mutaxassislik: 5A 111901 – Logopediya Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan DISSERTATSIYA (29-bet)
11. M.B.Mamatova Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar kinetic-kinestetik praksisini rivojlantirish texnologiyasi mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati (13-b)
12. Sh.D.Aripova: Bolalar nutqining grammatik qurilishini rivojlantirishda korreksion-pedagogik ish tizimi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati (11-b)
13. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 b. (429-430-betlar)
14. KO'ZI OJIZ BOLALARNI PEDAGOGIK PSIXOLOGIK O'RGANISH. Abduvaliyeva I.B. Qudratova B.L. Journal of Research in Innovative Volume: 1 Issue: 11 Year: 2024 Teaching and Inclusive Learning ISSN: 3030-3036 | <http://journals.proindex.uz>(41-42-betlar)